

BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASINING IQTISODIY TRANZAKSIYALARDA QO‘LLANILISHI

Yuldashev Shadiyor Shuxrat o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To‘rtko‘l fakulteti

Mutaxassislik gumanitar va aniq fanlar kafedrası Katta o‘qituvchisi

Mammatsalayeva Madina Rasul qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To‘rtko‘l fakulteti

Buxgalteriya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi natijasida iqtisodiyotda tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.


Ayniqsa, tranzak-siyalarni tez, xavfsiz va arzon amalga oshirishga qaratilgan innovatsion yechimlar kundan-kunga kengayib bormoqda. Shulardan eng muhim-laridan biri – blokcheyn texnologiyasidir. Bu texnologiya ma’lumotlarni markazlashmagan holda saqlash va tasdiqlashga asoslanib, iqtisodiy tranzaksiyalarni mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarmoqda.

Kalit so‘zlar: Bitcoin, bloklar zanjiri, raqamli innovatsion texnologiyalar, bank, logistika, kriptovalyuta, kadastr, buxgalteriya, raqamli konveer.

Kirish

Blokcheyn–markazlashmagan ma’lumotlar tizimi sifatida–to‘lov tizimi va biznes jarayonlarida shaffoflik, ishonchlilik hamda o‘zgartirib bo‘lmaydigan xususiyatlari bilan tranzaksiyalarni real vaqt rejimida kuzatish, autentifikatsiya qilish hamda tekshirish imkoniyatlarini beradi. Tranzaksiya tushunchasiga keladigan bo‘lsak, bu atama lotin tilidan tarjima qilganda “shartnoma, kelishuv” ma’nolarini anglatadi. Hisob balansiga ta’sir qiluvchi har qanday operatsiyani tavsiflaydi. Masalan, ish haqining kartaga tushishi, boshqa hisob raqamiga pul o‘tkazish, bankomatdan naqd pul yechib olish va hisobni to‘ldirish. Har bir tranzaksiyaga alohida unikal raqam beriladi, bu raqam tranzaksiyani identifikatsiya qilish va nazorat qilish uchun zarur.

Blokcheyn ya’ni “blokklar zanjiri”ni jamiyat va iqtisodiyotni batamom transformatsiya qiluvchi raqamli innovatsion texnologiya desak ham adashmaymiz.




1.Blokcheynni kim yaratgan?

Satoshi Nakamoto–bitcoin kriptovalyutasi va uni tadbiq qilish uchun dasturiy ta'minotning birinchi versiyasini ishlagan shaxs yoki guruh taxallusi. Bu nom ostidagi shaxs yoki guruhni oshkor qilishga bir necha marotaba urinishlar bo'lgan, ammo ularning barchasi muvaffaqiyatsiz yakun topgan.

2.Blokcheynning tuzilishi

Barcha bloklar bir- biriga bog'langan. Undagi barcha ma'lumotlar to'planib, doimiy ravishda yangilanib turadigan ma'lumotlar bazasini shakllantiradi. Agar siz pullarni yoki qandaydir ma'lumotni blokcheynda saqlasangiz, ushbu qaydlar hech qayerga yo'qolib ketmaydi yoki soxtalashtirilmaydi ya'ni, kimdir ma'lumotni o'zgartirishga harakat qilsa, blokcheyndagi xesh ham o'zgaradi va tizim buni darhol

sezadi. Shu sababdan blokcheyn iqtisodiy tranzaksiyalarda chuqur xavfsizlikni ta'minlaydi.



Blokcheynning asosiy xususiyatlari:

**Markazsizlashtirish*–zanjirda server yo‘q

**Shaffoflik*–har bir tranzaksiya kuzatiladi.

**Cheksiz*–nazariy jihatdan blokcheynni cheksiz yozuvlar bilan to‘ldirish mumkin.

**Ishonchlilik*–yangi ma’lumot yozish uchun tugunlar kelishuvi kerak bo’ladi.

Blokcheyn texnologiyasida ishlatiladigan raqamli valyuta (pul) –

kriptovalyuta deyiladi. Bugungi kunda eng ko‘p qo‘llaniladigan kriptovalyutalar quyidagilardir.

–Bitcoin

–Ripple

–Litecoin-

–Cardano

–Chain

3. Blokcheyn qo‘llaniladigan sohalar.

- Pul o‘tkazmasi

Kriptovalyutani o‘tkazish ilovalari ayniqsa, xalqaro tranzaksiyalar haqida gap ketganda, pul o‘tkazishni osonlashtiradi va tezlashtiradi

- Sog'liqni saqlash

Tibbiyotda blokcheyn blokcheyn bemorlarning tibbiy yozuvlarini blokcheynga joylashtirish orqali ularning xavfsizligi va maxfiyligi ta’minlanadi

- Logistika

Yuk tashish kompaniyalari blokcheyn texnologiyasidan foydalangan holda butun dunyo bo‘ylab ta’minot zanjirini kuzatib borish uchun texnologiyadan foydalanmoqda

- Davlat boshqaruvi

Blokcheyn davlat boshqaruvida ham qo‘llanilishi mumkin. Masalan, saylov tizimlarida blokcheyn ishlatilsa, ovozlar

o'zgartirib bo'lmaydigan
ma'lumotlar bazasida saqlanadi
hamda firibgarlik xavfi kamayadi.

● Elektron tijorat

Internet savdo platformalarida
blokcheyn texnologiyasining
joriy etilishi ishonchlilikni
ta'minlaydi.

Shuningdek, blokcheyn yer kadastr, buxgalteriya va audit hamda
dorixonalarni yuritishda ham qo'llaniladi.

4. Blokcheynning afzalliklari va kamchiliklari:

–**Afzalliklari:**

*Vaqt tarafdin

An'anaviy moliya tizimida, ayniqsa xalqaro pul o'tkazmalarida
mablag'larning bir hisobdan ikkinchisiga o'tishi banklararo
kelishuvlar, tekshiruvlar va ish soatlari tufayli bir necha soatdan bir necha kungacha
cho'zilishi mumkin.

Blokcheynda esa, tranzaksiya

tasdiqlanishi uchun zarur bo'lgan vaqt faqat yangi blokning yaratilishi va tarmoq
tomonidan qabul qilinishiga bog'liq. Bu jarayon:

–Bitcoin tarmog'ida taxminan 10 daqiqa atrofida.

–Ethereum kabi boshqa tarmoqlarda esa atigi bir necha soniyani tashkil qilishi
mumkin.

*Xarajatlarni optimallashtirish

Blokcheyn ko'plab vositachilarga
(banklar, brokerlar, notariuslar) bo'lgan
ehtiyojni yo'q qiladi. Natijada, ushbu
uchinchi tomonlarga to'lanadigan
komissiya va to'lovlar sezilarli darajada kamayadi.

*Global miqyosda 24/7 ishlash Blokcheyn tunu kun, dam olish kunlarisiz
ishlaydi. Bu orqali

tranzaksiyani istalgan vaqtda amalga oshirish va yakunlash mumkin.

*Aqlli kontraktlar

Blokcheynning eng muhim yutuqlaridan biridir. Bular shartlar
oldindan kodlashtirilgan o'z-o'zidan
ijro etiladigan shartnomalardir.
Shartlar bajarilishi bilan oq, to'lovlar

yoki boshqa harakatlar avtomatik tarzda amalga oshadi, bu esa inson aralashuvini va kechikishlarni yo'q qiladi.

–Kamchiliklari

***Murakkablik**

Texnologiya oddiy foydalanuvchilar uchun tushunish va undan foydalanish jihatidan murakkab bo'lishi mumkin.

***Ma'lumotlarni tuzatish qiyinligi**

Ma'lumotlarning o'zgarmasligi afzallik bo'lsa-da, xato kiritilgan ma'lumotni tuzatish yoki bekor qilish juda qiyin, ba'zan esa imkonsizdir.

***Yuqori energiya sarfi**

Bitcoin kabi ba'zi blokcheyn tarmoqlari tranzaksiyalarni tekshirish uchun ko'proq elektr energiyasi talab qiladi.

***Normativ huquqiy baza noaniqligi**

Blokcheyn va kriptovalyutalarni tartibga soluvchi huquqiy qoidalar ko'plab mamlakatlarda hali to'liq shakllanmagan, bu esa ba'zi sohalarda noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

Xulosa

Blokcheyn texnologiyasi iqtisodiy tranzaksiyalarni tubdan modernizatsiya qilayotgan ilg'or yechimdir. U pul o'tkazmalarini tezlashtirish, xarajatlarni kamaytirish, firibgarlikning oldini olish, davlat moliyasini shaffoflashtirish va investitsiya bozorini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida blokcheynning qo'llanish sohasi yanada kengayib, global iqtisodiy tizimning ajralmas qismiga aylanadi. Shuning uchun bugungi kunda bu texnologiyani o'rganish va hayotga joriy etish – iqtisodiy taraqqiyotning muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Taniyev. Blokcheyn texnologiyasi va kriptovalyutalar. O'quv qo'llanma. Samarqand–SamDU nashri, 2021-yil
2. R. H. Ayupov, G. R. Boltaboeva. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik.